

QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQRISHI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Ruxsatova Rushana O'ktamovna
(Termiz davlat universiteti erkin tadqiqotchisi)
rushanaruxsatova@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur ishda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi samaradorligi va uning turlari tahlil etilgan. Shuningdek, uni oshirish bo'yicha taklif va tavsiya keltirilgan.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi, samaradorlik, unumdorlik, iqtisodiy samara.

Аннотация: В данной работе анализируется эффективность сельскохозяйственного производства и его виды. Также даны предложения и рекомендации по ее увеличению.

Ключевые слова: сельское хозяйство, эффективность, продуктивность, экономическая эффективность.

Annotation: This paper analyzes the efficiency of agricultural production and its types. Suggestions and recommendations for increasing it are also given.

Key words: agriculture, efficiency, productivity, economic efficiency.

Qishloq xo'jaligini rivojlantirish, mahsulot ishlab chiqarishni miqdor va sifat jihatdan takomillashtirish bilan bog'liq muammolarini yechish zaruriyatini jamiyatning birlamchi ehtiyojlarini qondirish masalasaning dorzarbligi bilan asoslash mumkin. Shuning uchunki, bu sohaning iqtisodiyot tarmoqlaridan farqli xususiyatlaridan biri sifatida qaraladi.

Qishloq xo'jaligining asosiy vazifasi aholini oziq-ovqat, sanoatni esa xom ashyo bilan ta'minlashdan iborat. Qishloq xo'jaligi xom ashyosidan ishlab chiqarilgan oziq-ovqat va sanoat tovarlari iste'mol tovarlarining to'rtidan uch qismidan ko'prog'ini tashkil qiladi.

Qishloq xo'jaligi sanoatning yengil, oziq-ovqat, yem-xashak kabi tarmoqlari uchun asosiy xom ashyo yetkazib beruvchilardan biri bo'lib, o'z navbatida qishloq xo'jaligi ham sanoat tovarlari iste'molchisi hisoblanadi. Unda texnika, mineral o'g'itlar, yoqilg'i-moylash materiallari va boshqalardan keng foydalaniladi. Binobarin, ayrim tarmoqlarning rivojlanishi ko'p jihatdan qishloq xo'jaligiga bog'liq bo'lsa, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi sanoat rivojlanish darajasi bilan belgilanadi.

Mamlakatimiz qishloq xo'jaligi mo'tadil kengliklar uchun an'anaviy ekinlarni yetishtirishga ixtisoslashgan. Ekinlardan don ekinlari (arpa, javdar, bug'doy, makkajuxori, yem-xashak ekinlari) ustunlik qiladi. Dukkakli va moyli ekinlar ekish maydoni kengaymoqda. Chorvachilikda - qoramol (sut va go'sht) va parranda yetishtiriladi. Ta'kidlash joizki, ekinlar yetishtirish va chorvachilikning texnologik hamda resurs salohiyatidan hali ham yetarlicha foydalanilmayapti. Buni respublika hududlari tuproq holati va sharoitlarni hisobga olgan holda, ekinlarni yetishtirish nisbiy samaradorligi



bo'yicha yetarlicha ilmiy-tadqiqotlar olib borilmagan. Tadqiqotchilar qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi iqtisodiy samaradorligi mohiyati va tabiati, xo'jalik xususiyatlari, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish bo'yicha samaradorlikni turli usullari bilan talqin qilinadi. Zamonaviy iqtisodiy nazariya asoschilaridan biri A.Smit sanoat ishlab chiqarish samaradorligini mehnat taqsimoti zarurati bilan bog'lagan [1].

V.A. Dobrinin [2], O.S. Libkind [3], K.L.Obolenskiy[4] va boshqa olimlar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi samaradorligini har bir gektar yerdan yetishtirilgan mahsulot birligiga moddiylashtirilgan mehnat sarflagan holda maksimal hajmda mahsulot olish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni aks ettiruvchi siyosiy, iqtisodiy kategoriya sifatida qaraganlar.

Yu.G. Novikov fikricha, qishloq xo'jaligi korxonalarini samaradorligini aholi jon boshiga har bir gektar yerdan kerakli assortimentdagi oziq-ovqat va xomashyo ishlab chiqarishni muntazam ravishda oshirish bilan ko'rsatish mumkin. Qishloq xo'jaligi mehnat unumdorligi va yer unumdorligini va normal atrof-muhit sharoitlarini saqlash uchun barcha resurslardan oqilona foydalanish bilan mahsulot birligiga xarajatlarni kamaytirish lozim, deb hisoblagan[5]. N.A. Popov, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi samaradorligi uning ishlab chiqarish omillari bo'lgan barcha resurslaridan foydalanish samaradorligiga bog'liqligini ko'rsatadi[6].

N.Ya. Kovalenko qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi samaradorligi - bu agrosanoat kompleksidagi xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy-xo'jalik faoliyati samaradorligining yuqori ko'rsatkichlarga erishish qobiliyatidir, deb ta'rif beradi[7].

S. K. Jumaeva esa, samaradorlik (iqtisodiy va ijtimoiy) iqtisodiy yoki ijtimoiy samaraning unga erishishga sarflangan xarajatlarga nisbatidir. Umumiy iqtisodiy samaradorlik nisbiy bo'lib, samaraning uni olish uchun zarur bo'lgan xarajatlarga nisbati orqali aniqlanadi, degan xulosani beradi[8].

Qishloq xo'jaligi xususiyatlari ya'ni, yer-asosiy ishlab chiqarish vositasi ekanligi, qishloq xo'jaligi tuproq, iqlim va ob-havo sharoitlariga bog'liqligi (qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining mavsumiyliigi), qishloq xo'jaligida ish davri va ishlab chiqarish davri o'rtasida tafovut mavjudligi, qishloq xo'jaligi mahsulotlari keyingi ishlab chiqarish jarayonida qo'llanilinishi, qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talab narxlarini egiluvchanligi, mahsulot ishlab chiqaruvchilar soni ko'p bo'lishi qishloq xo'jalik mahsulotlari bozorida yuqori raqobat muhiti yuzaga kelishi uchun sharoit yaratadi. Qishloq xo'jaligi xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlariga nisbatan qayd etilgan xususiyatlari tarmoqning moddiy-texnika bazasini shakllantirish, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish, ulardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini aniqlashda har tomonlama tahlil qilish va hisobga olishni talab qiladi.

Qishloq xo'jaligida samaradorlik ko'pincha tabiiy, iqlim va ekologik jihatlar bilan bog'liq holda ko'rib chiqiladi. Shundan kelib chiqqan holda, butun agrosanoat majmuasi samaradorligi qishloq joylarning tabiiy resurs salohiyatidan foydalanish samaradorligi va qishloq xo'jaligi xom ashyosini qayta ishlash samaradorligiga asoslanadi.

Iqtisodchilar agrosanoat kompleksi samaradorligini texnologik, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik turilarga ajratadilar.



Texnologik samaradorlik deganda ishlab chiqarishni kengaytirish jarayonida resurslardan foydalanish darajasi tushuniladi.

Iqtisodiy samaradorlik ma'lum ishlab chiqarish samarasi mavjudligida ifodalangan ishlab chiqarish munosabatlarini amalga oshirish darajasini bildiradi.

Ijtimoiy samaradorlik aholi turmush darajasini oshirishga qaratilgan ma'lum darajadagi ijtimoiy rivojlanish va ekologik samaradorlik ishlab chiqarish birligining optimal xarajatlarida olingan oziq-ovqat bilan insonlar ijtimoiy ehtiyojlarini maksimal darajada ta'minlash, tuproq unumdorligini va atrof-muhitni qayta ishlab chiqarish uchun sharoitlarni to'liq saqlashni bildiradi.

V.T. Vodyannikov, samaradorlik - energiya resurslaridan oqilona foydalanish shakli sifatida, energiya narxlarining doimiy o'sishi bilan asoslanishi, deya ta'riflagan [9].

Shuningdek, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida mahsulotlarini bozorda sotish samaradorligi holatida ham ko'rib chiqiladi. Umuman olganda, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining samaradorlik darajasi turli xil omillarga tabiiy-iqlim sharoitlari, xodimlar malaka darajasi, ishlab chiqarilgan mahsulotlarga bo'lgan talab va sohani yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlashga bog'liq.

Ma'lumki, paxta va g'alla O'zbekiston hududida asosiy ekin maqomiga ega ekinlar hisoblanadi. 2023 yilda respublikamizda 3 million 800 ming tonna paxta, 8,5 million tonna g'alla yetishtirildi. Shuningdek, 15 million tonnadan ortiq sabzavot-poliz, 5 million tonna meva va uzum, 4 million tonna kartoshka yetishtirildi. Mamlakatimiz tomat pastasi, quritilgan mevalar, meva-sabzavot konservalari, sharbatlar, ichimliklar, o'ziga xos ta'mga ega go'sht va sut mahsulotlarini ishlab chiqarishda ishlatiladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining dunyodagi eng yirik ishlab chiqaruvchilardan biri hisoblanadi. O'ziga xoslikni O'zbekistonning issiq iqlimi, serhosil tuprog'i va dehqonlarning ushbu tarmoqqa bo'lgan cheksiz mehri va muhabbati olib keladi. Mamlakat oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash bo'yicha ko'plab reytinglarning birinchi o'ntaligiga kiradi.

Qishloq xo'jaligi eksportining geografiyasi va tarkibi yil sayin kengayib bormoqda. Bugungi kunda Xitoy, Janubiy Koreya va Evropa Ittifoqi mamlakatlarida ekologik toza meva-sabzavot mahsulotlariga talab ortmoqda. Joriy yilda tarmoq ishlab chiqaruvchilari 80ga yaqin xorijiy davlatga qiymati qariyb 1,5 milliard dollardan ortiq mahsulot eksport qildi.

Asosiy masalalardan biri bo'lgan tuproq unumdorligini oshirish, yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi va soha ekotizimining barqarorligini saqlashga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar natijasida ekinlar hosildorligi ortishi kuzatilgan. 2023 yilda 100 ming gektar yerning tuproq tarkibi yaxshilanib, qayta foydalanishga kiritilgan va bu yerlarga oziq-ovqat ekinlari ekildi, mevali bog' va tokzorlar barpo etildi. Natijada, sohaga zamonaviy ilmiy va innovatsion ishlanmalar izchil tatbiq etilayotgani, gumusli bioo'g'itlardan samarali foydalanilayotgani bois tuproq unumdorligi oshib, hosildorlik paxtachilikda 10 foiz, g'allachilikda 20 foiz, sabzavot-poliz ekinlarida 25-30 foizgacha ortdi.

Bugungi kunda butun dunyoda, jumladan, mamlakatimizda ham sodir bo'layotgan iqlim o'zgarishi, suv resurslarining tobora tanqislashuvi, cho'llashuv darajasining oshishi



ko'p tarmoqli agrar soha oldiga ko'plab muammolar yechimini topish masalasini qo'yimoqda. Ushbu xavflarning oldini olish, tuproq unumdorligini oshirish, sohani resurs tejaydigan va yuqori unumli yangi texnikalar bilan uzluksiz ta'minlab borish, rivojlangan davlatlar tajribasi asosida agrotexnologiyalarni joriy etish, haqiqiy bozor mexanizmlarini joriy qilish orqali mahsulot ishlab chiqarish hajmlarini oshirish, xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash hamda yetuk bilimga ega mutaxassislar tayyorlash kabi vazifalarni ustuvor qilib qo'yimoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. - М.: «АСТ», 2021. -960 с.
2. Добрынин В.А., Беляев А.И., Дунаев П.П. и др. Экономика сельского хозяйства: [Учеб. для высш. с.-х. вузов по экон. спец.]; Под ред. В.А. Добрынина. - 3-е изд., перераб. и доп. - М.: Агропромиздат, 1990. - 475 с.
3. Либкинд А.С., Иванова А.В., Литвинова Л.В. Экономика сельского хозяйства: Учеб. пособие. - Москва: [МЭСИ], 1975. - 48 с.
4. Оболенский К.П. Теория и практика специализации сельского хозяйства [Текст] / К.П. Оболенский, чл.-кор. ВАСХНИЛ. - 2-е изд., перераб. и доп. - Москва: Колос, 1975. - 192 с.
5. Новиков Ю.Ф. Беседы о сельском хозяйстве. - Москва: Мол. гвардия, 1978. - 208 с.
6. Попов Н.А. и др. Экономика сельского хозяйства: учебное пособие. - Москва: Магистр: ИНФРА-М, 2010. - 397 с.
7. Коваленко Н.Я. и др. Экономика сельского хозяйства: учебник для вузов. - Москва: Издательство Юрайт, 2023. - 406 с.
8. Жумаева С.К. Инвестициялар самарадорлиги ва уни баҳолаш услублари.// Иқтисод ва молия / Экономика и финансы № 11, 2012, 13-18 б.
9. Водяников В.Т. Экономика сельской энергетики.- Москва : Колос-с, 2020 .-360 с.